



## O'LKAMIZDA NAVRO'Z!



## QATTIQ KARANTIN REJIMIGA QAYTAMIZMI?

**Kecha Xalq deputatlari  
Toshkent shahar  
kengashining 36-sessiyasida  
koronavirus infeksiyasi  
yangi shtammlari keng  
tarqalishining oldini  
olish to'g'risidagi masala  
muhokama etildi.**

Ma'lumotlarga ko'ra, keyingi vaqtlarda poytaxtimizdagi ayrim hududlarda karantin qoidalariga mas'uliyatsizlik bilan yondashish kasallikning keng tarqalishiga olib kelgan. Masalan, 2021-yil 10-mart kuni Yunusobod tumanida joylashgan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi R.M.da koronavirus infeksiyasi aniqlangan. Epidemiologik surishtiruv natijasida tarbiyachi xonadonida koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan bemor bo'lishiga qaramasdan karantinga rioya etmay ish joyiga borib ishlagan. Natijada, 11-mart kuni epidemiologik ko'rsatmaga asosan muassasaning tarbiyachi va tarbiyalanuvchilaridan test tahlillari olinganda 2 nafar tarbiyachi hamda 1 nafar tarbiyalanuvchida koronavirus infeksiyasi aniqlangan. Hozir bu ish Toshkent shahar Prokuraturasi nazoratiga olingan.

Davomi 2-sahifada.

## UCHRASHUV

# TALABALAR JURNALISTLAR IJODIY UYUSHMASIDA


**Qaysiki sohada bo'lmasin, hayotiy va kasbiy tajriba doimo muhim va kerakli sanalgan. Yoshlarning shijoati, ko'pni ko'rgan ustozlarning malaka va maslahatlari tufayli ko'p yangiliklar yaratiladi. To'g'ri, ishonchli yo'l tanlanadi.**

Kuni kecha biz, O'zJOKU harbiy jurnalistika yo'nalishi talabalarini O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi raisi o'rinbosari Xolmurod Salimov bilan ochiq muloqotda bo'ldik. X.Salimov biz, yoshlarni uyushmaga taklif etdi. O'zimizni jurnalistika talabasi deb tanishtirganimiz zahotiyoq bizga nisbatan qandaydir iliqlikni sezdik. Yuzma-yuz suhbatda Xolmurod Salimovning so'zlarini tinglar ekanmiz, ularning yoshlarni qanchalik qadrlaydigan, ertamiz egalari deb katta ishonch bildirib, imkon boricha qo'llab-quvvatlaydigan mutaxassis ekaniga shohid bo'ldik.

— Bugungi kunda jurnalistika jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Talab ham shunga yara-she. Shunday ekan mazkur sohani yanada yuksaltiradigan zamonaviy dunyoqarashga ega yoshlarga hamisha ehtiyoj sezamiz. Ularning jurnalistika sir-asrorini yaxshi o'zlashtirib, iste'dodini namoyon qilishidan ayni vaqtda faoliyat yuritayotgan har bir jurnalist manfaatdor desam, xato bo'lmaydi. Yoshlarning harakati, shijoatini ko'rib biz ham o'zimizga ilhom olamiz, ruhanamiz, — dedi Xolmurod Salimov. — Biz o'z kasb tajribasiga ega jurnalistlarimizning har biriga mana shun-

day yosh jurnalist va talabalardan besh nafarini sohaga o'rgatish, ijodiy ishlarida amaliy yordam berishi uchun birlashtirishni reja-ga kiritganmiz. Gohida uchratib qolamiz, televideniye-ga amaliyot o'tash uchun borgan talabalarni ortiqcha sarson qilib, o'quv yurtidan xat olib kelishni so'rashadi. Buning o'rniga chin dildan jurnalistikani o'rganaman, deb maqsad qilgan yoshlarni yonimizga olib, tarbiyalab borishimiz har tomon-lama foydali bo'ladi, menimcha. Shu yildan yozuvchilar uyushma-si tomonidan yosh shoir va nasr-chilarni birlashtirish, rag'batlan-tirish maqsadida o'tkaziladigan Zomin seminari kabi jurnalistlar uyushmasi tomonidan seminar o'tkazish rejalashtirilmoqda.

Suhbat davomida X.Salimov-dan mustaqil ijod mobaynida



ko'proq nimalarga e'tibor qaratish kerakligi hamda bugungi davr talabidagidek jurnalist bo'lish uchun nimalar qilish kerakligi borasidagi fikrlarini tinglab, o'zimizni qiziq-tirgan savollarga atroflicha javob oldik. Uchrashuv so'ngida Xolmu-rod Salimov bizlarni jurnalistlar ijodiy uyushmasida tashkil etilgan kutubxona bilan tanishtirib, bo'sh vaqtlarda sohaga oid adabi-

yo'tlarni mutolaa qilishga chor-ladi. Uyushma tomonidan chop etilgan "Umid yog'dusi", "O'zingni angla, o'dob saqla" nomli kito-blarni sovg'a qilib, yetuk jurnal-ist bo'lishimizda omadlar tiladi. Uchrashuv barchamizda unutil-mas taassurot qoldirdi.

**Kamoliddin RO'ZIMATOV,  
O'zJOKU talabasi**



# BIZ KELAJAKKA DAXLDORMIZ

**Serqirralik – davr talabi. Men shunday deb hisoblayman. Ham jurnalistika, ham adabiyot, ham sardorlik va chet tillarini o'rganishga qanday qilib vaqt topa olishim ko'pchilik tengdoshlarimni qiziqtiradi. Barcha yo'nalishdagi yutuqlarimga bosqichma-bosqich erishib kelmoqdaman.**

Hududiy telekanallar qolipdan chiqishini istardim. Beshinchi sinfda o'qib yurgan kezarimda viloyat teleradiokompaniyasidagi bolalar dasturida boshlovchilik qilishga taklif etishgan. Undan keyin ko'rsatuvlarni, hozir esa ertalabki jonli efirni olib boraman. Toshkent shahridagi yosh jurnalistlar maktabini tamomlaganimdan so'ng, maqolalarim Angliya, Rossiya, Tojikiston hamda Germaniyaning nufuzli gazeta va jurnallarida chop etib kelimoqda. Hududiy telekanallardagi doimgi shablonlar, eskicha anons va ko'rsatuvlar kam sonli tomoshabinlar e'tiborini tortadi. Yoshlarbop ko'rsatuvlar, qiziqarli dasturlar, yangicha g'oyalar va kreativ ssenariylar bilan ishlash ham jurnalistga energiya beradi, ham tomoshabiniga zavq bag'ishlaydi.

Jurnalist uchun so'z boyligi nihoyatda muhim. Buning uchun adabiyot bilan oshno tutinish shart va zarur. Bilimlar bellashuvi hamda fan olimpiadalarida ishtirok etarkanman, Alisher Navoiy ijodiga qiziqish bilan qaray boshladim. Ayni damda hazrat Navoiyning 300ga yaqin g'azallarini yod bilaman. O'zimda ham g'azal yozish ishtiyoqi paydo bo'ldi. Bir qancha g'azallarim hamda hikoyalardan tashkil topgan ilk mualliflik kitobim — "Ummonga intilgan irmoq" nashrdan chiqdi. Endilikda ilmiy izlanishlar olib boryapman. G'azal yodlashning yangi metodik usullari hamda ularning ilmiy shahrlari haqidagi fikr va mul-

Lobarxon JALOLOVA:

- 2019-yili Angliyada o'tkazilgan "Conduct of modern science – 2019" konferensiyasida mualliflik maqolasi bilan ishtirok etib, sertifikat bilan taqdirlangan;
- Rossiya Federatsiyasining "Solnechniy svet" onlayn olimpiadasida adabiyot fani bo'yicha birinchi o'rinni egallagan;
- Xalq ta'limi vazirligi tashkil etgan "Yil hikoyasi" respublika ko'rik-tanlovining mutlaq g'olibi bo'lgan;
- 2020-yilda "Eng ulug', eng aziz" ko'rik-tanlovining "Yozuvchi va shoirlarning badiiy asarlari" yo'nalishi bo'yicha uchinchi o'rinni qo'lga kiritgan.

hazalarimni birlashtirib, ikkinchi mualliflik kitobim — "Chin g'azal bo'stoni ichra..." deb nomlanuvchi ilmiy-uslubiy metodik qo'llanmani keng jamoatchilikka taqdim etdim.

Zamon bilan hamnafasman. Bugungi kunni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sohada ham bilimlarimni oshirish va o'zimni sinab ko'rish maqsadida bir nechta dasturlar

ustida bosh qotirdim va AQShning "TECHgirls" loyihasi finalida ishtirok etdim. Hozir sevimli tashkilotimizda sardor bo'lish bilan bir qatorda, o'quvchi qizlarga mo'ljallangan yangi loyiha ustida izlanishdaman.

To'g'risini aytсам, ko'pchilik menga bitta yo'nalishni tanlashimni, ikki yoki undan ko'p kemani ushlasam, g'arq bo'lishim mumkinligini uqtiradi. Ammo men serqirra bo'lgim keladi va har safar shu mavzuda gap ochilsa, Zebo G'aniyevaning faoliyatini misol qilib keltiraman. Bilasiz, Zebo G'aniyeva taniqli o'zbek aktrisasi. Shu bilan birga, 17 yoshida Ikkinchi Jahon urushi frontida avval hamshira, oshpaz, keyinchalik snayperchi bo'lib jangga kirgan. Urushdan so'ng, ilm bilan shug'ullanib, filologiya fanlari nomzodi, sharqshunos doktor, professor ilmiy daraja va unvonlarini qo'lga kiritgan.

Shu paytgacha barchasiga vaqt topa olganman. Yaqin kelajakda o'z biznesimni ham yo'lga qo'ymoqchiman. Hayotdagi eng katta maqsadim Zebo G'aniyeva kabi serqirra va zabardast o'zbek ayoli sifatida jamiyatda o'z o'rnimga ega bo'lishdir.

Lobarxon JALOLOVA,  
Yoshlar ittifoqi Navoiy viloyati sardorlar kengashi raisi,  
Navoiy shahridagi  
11-IDUMning 11-sinf o'quvchisi

SENING TENGDOUSHING



## QATTIQ KARANTIN REJIMIGA QAYTAMIZMI?

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Shuningdek, 5-mart kuni Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan ta'lim muassasasi tarbiyachisi M.M.ning qaynotasi Zangiotadagi shifoxonaga koronavirus infeksiyasi tashxisi bilan yetkazilgan va 7-mart kuni vafot etgan. 9-mart kuni janoza paytida mazkur ta'lim muassasasi bir necha xodimlari ishtirok etgan va bu bilan muassasa tarbiyalanuvchilarining sog'lig'ini xayfga qo'ygan.

Yana bir holat, Olmazor tumanida joylashgan oliy ta'lim muassasasiga qarashli talabalar turar joyida ham 3 nafar talabada bir necha kundan buyon tana haroratining ko'tarilishi, tomoq og'rig'i va holsizlik belgilari bo'lganligi sabab ulardan koronavirus infeksiyasiga test tahlil surtma namunalari olingan. 13-mart kuni oliy ta'lim muassasasi tegishli fakultetida o'qiydigan, kasallik alomati mavjud bo'lmagan 4 nafar talabada infeksiya aniqlangan.

Shularni inobatga olgan holda mutassadi tashkilotlar rahbarlariga qator ko'rsatmalar berilib, Toshkent shahri koronavirus infeksiyasi kirib kelishi va tarqalishining oldini olish bo'yicha Toshkent shahar shtabining qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, koronavirus infeksiyasi aniqlangan oilalarda karantin talablariga rioya etmagan fuqarolarga nisbatan qonuniy jazo choralarini ko'riladi. Aholi orasida COVID-19 keng tarqalishining oldini olish, fuqarolar salomatligini himoya qilishni yanada kuchaytirish maqsadida Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan ommaviy-madaniy tadbirlar o'tkazilishida karantin talablariga qat'iy rioya etilishi nazoratga olinadi. Qolaversa, sport musobaqalari tomoshabinlarsiz o'tkazilishi mumkin.

Agar epidemiologik vaziyat yomonlashsa, joriy yilning 1-aprelidan boshlab ommaviy tadbirlarni vaqtincha to'xtatib turish yuzasidan Respublika Maxsus komissiyasiga tegishli taklif kiritiladi.

Qattiq rejimli karantin davrida uyda qamalib o'tirish qanchalik og'ir ekanini har birimiz yaxshi anglab yetdik. Bundan ham yomon, o'zimiz va yaqinlarimizning sog'lig'i xavf ostida qolishidir. Shunday ekan xatolarni takrorlamasdan, karantin qoidalariga hamjihatlikda amal qilsak, ehtimoliy xavfni bartaraf etgan bo'lamiz.

Lobar QODIROVA tayyorladi.

### JAMOAT JOYLARIDA TIBBIY NIQOBSIZ YURISH JARIMAGA TORTISHGA SABAB BO'LADI qonunchilikda belgilangan javobgarlik bekor bo'lgani yo'q

"Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksning 54-moddasida epidemiyalarga qarshi kurash qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Ushbu moddaga ko'ra, Karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo'lishi hamda tarqalishi sharoitida vakolatlari organning maxsus talablariga zid ravishda jamoat joylarida niqobsiz bo'lish bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravarigacha (1 million 225 ming so'm) miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.



Sevara O'RINBOEVA,  
Adliya vazirligi axborot xizmati rahbari

Ma'mura HUSANOVA

## ODAMLAR KARANTIN CHEKLOVLARIDAN QO'RQMOQDAMI YOKI VIRUSDAN?

So'nggi kunlarda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan "Virus ko'payib ketmoqda, o'tgan yili ham shunday boshlanib, oxir-oqibat karantin e'lon qilindi", kabi xabarlar omma orasida behuda vahimaning avj olishiga sabab bo'lmoqda. Poytaxtimizda o'quvchilar, talabalar va tashkilotlar xodimlarida virus chiqib, nazorat tadbirlari yanada kuchaytirilayotgani haqida xabar berilib, aholi ogohlantirilgani rost. Lekin bu sarosimaga tushib, ortiqcha vahima chiqarish kerak, degani emas.

Yurtimizda tarqalayotgan virus "Britancha shtamm" hisoblanadi. Mazkur virus asosan bolalar o'rtasida tez tarqalmoqda. Bolalarda kasallanish holatlarida 5 ta asosiy belgi qayd etilmoqda: bosh og'rig'i, tomoq og'rig'i, holsizlanish, ishtaha yo'qolishi va qorin sohasida og'riqlar paydo bo'lishi. Ushbu belgilar asosan 19 yoshgacha bo'lgan va yosh bolalarda kuzatilayotgani mutaxassislar tomonidan ta'kidlanmoqda.

Koronavirusning yangi shtammi bilan og'rikan bolalarning deyarli yarmida harorat 37 darajadan yuqori bo'lgan. Bolalarning 38 foizi tomoq og'rig'idan shikoyat qilgan.

Kasallanganlarning taxminan 35 foizida ishtaha yo'qolishi kuzatilmoqda. Bu ko'p hollarda bir yoshga to'lmagan chaqaloqlarda uchrayapti. Shu sabab shifokorlar bolalarni oz-oz, ammo tez-tez ovqatlantirishni maslahat berishmoqda.

Aholi o'rtasida kasallik tarqalishining oldini olishning birdan-bir yo'li karantin qoidalariga qat'iy rioya qilishdir. Zarurat bo'lmasa, xorijiy safarlarni bir muddat to'xtatib turish, jamoat joylarida masofa saqlab, niqobda yurish va antiseptik vositalardan foydalanish lozim.



## NUQTAYI NAZAR

# TA'LIMDAGI MUAMMOLAR

## zamon yoshlarining e'tiroziga sabab bo'lmoqda

**Milliy taraqqiyotning hozirgi bosqichi o'zining ochiqligi, so'z erkinligining keng rivojlanishi va jamiyatni erkinlashtirish siyosati bilan "Yangi O'zbekiston" deb nomlana boshladi. Yangi jamiyatimizda yosh avlodni kamol toptirish uchun ko'plab sharoitlar yaratilgan.**

Biz, yoshlar muhtaram Prezidentimiz doimiy ravishda yoshlar bilan uchrashib turishi, ularning dolzarb muammolari bilan qiziqishi, yoshlar parlamenti, Yoshlar ishlari bo'yicha agentlik tashkil etilgani, 2021-yil "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb e'lon qilinganidan g'ururlanamiz.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lami islohotlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bilan birga, yoshlarning ayrim masalalariga to'xtalib o'tmoqchimiz. "Adolat" SDP tomonidan maktab, kollej, akademik litsey va oliy o'quv yurti o'quvchi-talabalari o'rtasida onlayn so'rov o'tkazilganda uchta asosiy muammo aniqlandi: gender tengsizligi, korrupsiya va maktablarda sifatsiz ta'lim. Mamlakatimizda ta'lim sifati muammoga ovoz bergan ishtirokchilarning fikri bir necha bor oshib ketdi (So'rov qatnashchilari uchun maktabdagi muammolar eng xavotirlidir).

Birinchi muammo — maktabda olingan bilimlarning yetishmasligi, ta'limning sifatsizligi. O'quvchilar nazariy jihatdan maktabda olgan bilimlari bilan ishlashi kerak bo'lgan paytda OTMga kirish uchun tayyorgarlik mashg'ulotlariga qo'shimcha pul va vaqt sarflaydi. O'quvchilar savodsiz darsliklar, ulardagi xatolar, o'qituvchilar esa ba'zi chalkashliklar haqida shikoyat qilmoqda.

Ikkinchidan, maktab bitiruvchilari keyingi ta'lim muassasalariga kirish, kasb tanlashda ham muammoga duch kelmoqda. Bu muammo kasblarning mavjud turlari va sohalari

to'g'risida bilimlarning yetishmasligi tufayli ham yuzaga keladi. Hayotda o'z maqsadini belgilab qo'ygan bitiruvchilar vaqtini kelajakda mutaxassisligi bo'yicha foydali bo'lmagan mavzular bo'yicha yozma ishlarga sarflaydi. Masalan, kelajakda tibbiyot sohasida ishlashni rejalashtirganlar ushbu yo'nalish bilan bog'liq bo'lmagan fanlarni o'rganishlari shart emas. Shu sabab yoshlar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlari har tomonlama rivojlantirish zarur, deb hisoblaymiz.

Bu yerda Toshkent davlat Iqtisodiyot universitetining tajribasi o'rinni. Uning talabalari ijtimoiy fanlar o'qituvchilari rahbarligida ilgari o'zlar o'qigan maktablarda qiziqarli innovatsion loyihalar — "Mening universitetim — mening faxrim", "Ustozim — hayotim chirogi" va boshqa tadbirlarni o'tkazmoqda. Ushbu taqdimotda talabalar o'zi o'qiyotgan universitetning ixtisosliklari, shuningdek, yaxshi bilim va ta'lim olishga yordam bergan, ularning hurmatiga sazovor bo'lgan universitet va maktabdagi o'qituvchilari haqida gapirib berishadi, o'zlar tayyorlagan albom-taqdimotni namoyish qilishadi. Ushbu loyiha yoshlarga kelajakdagi mutaxassisligini aniqlash uchun yaxshi turki, motivatsiya beradi.

Uchinchidan, maktab bilan otanonalar o'rtasida yaqin aloqalar doim ham o'rnatilavermaydi, ular orasidagi aloqa madaniyati yetarli darajada emas, bu borada innovatsion loyihalar kam.

Biz hali ham o'qituvchi obro'si,

maqomini yuqori darajaga ko'tarishga erisha olmadik, bularsiz ta'lim va tarbiya sifatini oshirish ancha qiyin bo'ladi.

To'rtinchidan, yoshlarning o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini, tashkilotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish, maktablar va jamoat tashkilotlari, oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi hamkorlik tizimli e'tiborga muhtoj.

So'rov asosida aniqlangan, yana bir muhim muammo — bu yosh avlodning axloqiy va jismoniy rivojlanishi uchun ijtimoiy obyektlarning yetishmasligi: ilmiy markazlar, texnoparklar, zamonaviy kutubxonalar, sport maydonchalari va boshqalar.

Ushbu maqolada zamonaviy yoshlarning ta'lim va o'zini rivojlantirish sohasidagi ba'zi muammolari yoritildi, xolos. Barchamiz birlashgan holdagina mamlakatimizda yangi renessans uchun kuchli poydevor yaratishga o'z hissamizni qo'sha olamiz. Bu bizning dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egallashimizga va mamlakatimiz aholisining, shu jumladan, yoshlarning hayot sifatini yuqori darajaga ko'tarishga katta imkoniyat yaratadi. Ko'rilayotgan chora-tadbirlarni to'la amalga oshirishda barcha mutasaddilar mas'uliyatni his etishi, bildirilayotgan har bir fikrni tinglab, undan unumli foydalanishi zarur. Zero, ta'lim-tarbiya butun mamlakat ahliga daxldor vazifadir.

**Sogdiana SAIFNAZAROVA,**  
Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universiteti talabasi, "Adolat" SDP faoli



# HAYOTGA ISHONCH BILAN QARASHNI O'RGATAMIZ

**Biz nogironligi bor shaxslarni imkoniyati cheklangan deyishga ko'nikib qolganmiz. Bu qaysidir ma'noda to'g'ri, ammo ularning aksariyati to'rt mchasi sog'lom insonlardan sira ham qolishmay mehnat qiladi, iste'dodini yuzaga chiqara oladi. Buning uchun ularga faqat yetarlicha shart-sharoit yaratib berish, vaqti-vaqti bilan rag'batlantirib turish lozim.**

Toshkent viloyati Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazi nogironligi bor yurtdoshlarimizni davolash va ularning mehnat qilishiga zarur shart-sharoitlar yaratib berishga xizmat qiladi. Markaz 50 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, ichki a'zolar kasalliklari (20 o'rin) va jarohatlar asorati bilan og'rikan (10 o'rin) nogironligi bor shaxslar TMEK yo'llanmasiga ko'ra sog'lomlashtiriladi.

2015-yilda markaz qayta rekonstruksiya qilindi va yangi 50 o'rinni yotoqxonaga binosi qurildi. Bemorxonalar 4 kishilik bo'lib, har bir xonada televizor, yuvinish xonalari mavjud, bu bemorlar davolanish davrida yoki qimli hordiq chiqarishida qo'l kelyapti. Shu o'rinda yurtdoshlarimizda markazda davolanish uchun qanday yo'l tutish kerak, degan savol tug'ilishi tabiiy. Markazimizga Toshkent viloyatining barcha shahar va tumanlaridan nogironligi bo'lgan shaxslar hududiy TMEKlar tomonidan order orqali sog'lomlashtirishga yuboriladi. Bundan tashqari, markazning o'zini o'zi ta'minlash, texnika bazasini mustahkamlash maqsadida 40 o'rinni xo'jalik hisobidagi bo'lim mavjud bo'lib, bu yerda nogironligi bo'lmagan bemorlarga pullik tibbiy xizmat ko'rsatiladi.

Tibbiy reabilitatsiya bo'yicha markazda nogironligi bo'lgan shaxslar dori-darmon, fizioterapiya, gidroterapiya, davolovchi mashqlar, trenajorlar yordamida sog'lomlashtiriladi. Ijtimoiy reabilitatsiya bo'limida nogironligi bo'lgan shaxslarning o'ziga o'zi xizmat ko'rsatishi, boshqalar bilan muomala, xulq-atvorini nazorat qilish, o'qish va boshqa qobiliyatini tiklash borasida ko'mak beriladi. Xatti-harakatini nazorat etishi va ijtimoiy-muhitga moslashishi uchun test sinovlari o'tkaziladi. Tayanch harakat organlarida nuqsoni bor shaxslarning harakatini tiklash va kuchli og'riqli sindromlarni davolashda "ko'zgu" terapiyasi o'tkaziladi hamda protez ortopedik mahsulotlar, reabilitatsiya

texnik vositalaridan to'g'ri foydalanish o'rgatiladi.

Harakat faoliyati cheklangan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun joriy yilda markazning xo'jalik hisobidan tushgan mablag'dan 12,5 million so'mga "Shagun" qadam tashlash imitatori xarid qilinib, ishga tushirildi. Bundan tashqari, ijtimoiy reabilitatsiya ko'lami va sifatini oshirish maqsadida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ergoterapiya va musiqa terapiya yo'lga qo'yilgan.

Markazda Kasbiy reabilitatsiya yo'nalishida ham davolash choralari olib boriladi. Bunday usulda nogironligi bo'lgan shaxslarda saqlanib qolgan mehnat qobiliyatini aniqlab, kasbga yo'naltirish, kasb ta'limini berish tadbirlari yo'lga qo'yilgan. Markazda davolanayotgan shaxslarga kasbiy axborot, ma'lumotlar berib boriladi, tikish-bichish, to'qish, kompyuterda ishlash o'rgatiladi.

Hozirgi kunda markazga asab tizimi kasalliklari, qon aylanish tizimidagi o'zgarishlar, nafas olish a'zolarida nuqsoni bor kishilar, suyak-mushak tizimi kasalliklari bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar ko'proq kelmoqda.

Bunday bemorlarda depressiyaga tushish holati ko'p uchraydi. Depressiyada ko'pincha asosiy ruhiy-hissiy buzilishlar, kayfiyatning tushib ketishi, umidsizlik, g'am-g'ussa, doimiy xavotir, yomon voqealarni kutib yashash, aybdorlik hissi yoki nuqul o'zini ayblash, qaysarlik, o'jarlik, o'z bilganidan qolmaslik, o'z hayotidan qoniqmaslik va o'zini kamsitish, atrofdagi voqealar va yaqinlariga qiziqishning yo'qolishi kuzatiladi. Bunday holatlarda nogironligi bo'lgan shaxslar bilan markaz psixolog suhbatlar o'tkazadi. Psixolog qabulida suhbatdan o'tgan bemorning dunyoqarashi, aksariyat hollarda, keskin o'zgaradi.

**Gavharoy SHONIYOZOVA,**  
Toshkent viloyati Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazi rahbari



## MULOHAZA UCHUN MAVZU

# Tarbiyaning XAVFLI KO'RINISHI

Bugun biz shunchalar rivojlangan zamonda yashayapmizki, internetga ulanib, xohlagan ma'lumotni topishimiz mumkin. Shundan telefon va internet bizning eng zarur yordamchimizga aylandi. Hatto ayrim holatlarda bolani tinchlantirish, ovuntirish maqsadida uning qo'lga telefon tutqazamiz.

Ba'zi mamlakatlarda bolalarning o'z tarmoqlari mavjud bo'lib, ularda ovozli o'yinlar, multfilmlar, yirik shifrlar va bolalarga tushunarli tilda bayon etilgan matnlar berilgan. O'sha mamlakatlarda virtual olamda ham haqiqiy hayotdagi kabi tartib-intizom qoidalarini mavjudligini bolalarga tushuntirib borish birinchi navbatdagi vazifa deb qaraladi.

Farzand kichikligidan unga issiq choynak, qozonlarga yaqinlashish, pichoq, qaychi kabi o'tkir

tig'li narsalarga tegish mumkin emasligini ongiga singdirganlari kabi, tarmoqdagi xavfli axborot haqida ham tushuntirish, ularda axborotdan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish zarur. Internet manbalari o'smirlar bilim doirasini, dunyoqarashini kengaytirishi bilan birga, ularning tarbiyasiga nafaqat salbiy, balki xavfli ta'sir ko'rsatishi mumkinligini unutmasligimiz zarur.

Mazkur xavflarning oldini olish maqsadida quyidagi



Shahnoza SANGILOVA, amaliyotchi psixolog

tavsiyalarga e'tibor qaratish lozim:

▶ tarmoqdan foydalanganida farzandingizni nazoratsiz qoldirmang;

▶ uning ongiga ma'naviy tahdidlardan himoyalanih instinktni singdirib boring;

▶ bolaga internetda faqatgina "yaxshi" emas, balki "yomon" axborotni ham uchratishi mumkinligini tushuntiring;

▶ tarmoqda ro'yxatdan o'tish qoidalarini, shaxsiy ma'lumotlarni oshkor etish mumkin emasligini uqtiring;


▶ internetdan biror ma'lumotni saqlab olishda e'tibor qaratish zarur bo'lgan qoidalarini tushuntiring;

▶ tarmoqda ham hayotdagi kabi tartib-intizom qoidalarini unutmaslik zarurligini ta'kidlang;

▶ bola internetdan foydalanishida "ota-ona nazorati" dasturlaridan foydalaning va cheklovlarni o'rnatang;

▶ har kuni farzandingiz muloqotlarini kuzatib borishni o'zingizga odat qiling;

▶ farzandingiz va o'zingizning kompyuter savodxonligingizni muntazam rivojlantirib boring. O'z bilimlaringiz bilan o'rtoqlashing. Internet xavfsizligi sizning bu boradagi bilim va malakangizga ham bog'liq ekanligini unutmag.



## Qush uyasida ko'rganini qiladi

**"Bolaning tarbiyasi nozik masala, u yaxshidan ham, yomondan ham ko'rganini oladi", deb xalqimiz bejiz aytmagan. Haqiqatan ham, bolaga "yaxshi bo'li", degan bilan u eshitganiga emas, balki ko'rganiga amal qiladi.**

Hozirgi kunda ba'zi oilalar bolani tarbiyalashdek o'ta mas'uliyatli vazifani internet, telefon, kompyuter yoki boshqa turdagi texnik vositalarga ishonib topshirayotgani sir emas. Achinarlisi shundaki, xorijiy kanallar targ'ib qilayotgan zo'ravonlik va terror sahnalar, behayo klip va filmlar farzandlarimiz ong-shuurida noto'g'ri qarashlar shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

To'g'ri, internet vositalari, ekran mahsulotlari yoshlarni tarbiyalashda, ularning estetik didini o'stirishga va ma'naviy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq buning uchun filmlarda illatlar emas, balki ezgu fazilatlar



Mahbuba TO'RAYEVA, Jizzax shahridagi 29-umumta'lim maktabining huquq va ma'naviyat asoslari fani o'qituvchisi

ulug'lanishi kerak. Zero, ekranga termulib o'tirgan bolaning hali shakllanib ulgurmagani dunyoqarashi birgina noto'g'ri axborot tufayli butunlay o'zgarib ketishi mumkin.

Demak, biz bolalarni yuksak ma'naviyatli, axborot iste'molida mustahkam ma'naviy immunitetga ega, milliy qadriyatlariga sadoqat ruhida hamda puxta bilim egasi qilib tarbiyalashimiz lozim.

## ILM-FAN YUTUQLARI — AMALIYOTGA

# IT SOHASI yoshlar tafakkurini O'ZGARTIRADI

Inson doim oldiga ulkan maqsadlar qo'yishi va shunga qarab ishlarini reja asosida olib borishi kerak. To'g'ri, gohida bunga erishish mumkin emasdek ko'rinadi, biroq barchasi istak va intilishga bog'liq! Mana hozir yoshim 25 da va allaqachon niyatlarimning bir qismiga erishdim. Bunga nafaqat mehnatim va izlanishlarim, balki yurtimizda yaratib berilgan imkoniyatlar ham sabab bo'ldi.



Aytish kerak, Prezidentimiz videoselektor yig'ilishida har bir tumanda kamida bitadan maktabda IT-to'garagi ochish, yana 100 ta Raqamli texnologiyalar o'quv markazi tashkil etib, 20 ming yigit-qizni dasturlash va axborot texnologiyalari sohasida tadbirkorlikka o'qitish muhimligini ta'kidladi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki ayni texnika asrida kompyuter bilan "tilla-she" olgan har qanday kadr o'z yo'lini topib ketishi aniq.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ilg'or davlatlar iqtisodiyotining barcha tarmog'ida keng joriy etilmoqda. Hatto ayrim mamlakatlar ushbu sohaning eng yuqori cho'qqisi hisoblangan sun'iy intellektdan faol foydalanishga o'tganiga guvoh bo'lyapmiz.

Yurtimizda ham IT sohasi hayotimizga jadal kirib kelmoqda. Mazkur soha rivoji xalqimizning og'irini yengil qiladi. Jumladan, ayni paytda Guliston shahar hokimligida joriy qilingan "Onlayn ariza" elektron qabulxona loyiham yaxshi natija bermoqda. Ushbu platforma tufayli murojaat qiluvchi vaqt va mablag' sarflab hokimlik idorasiga kelishiga chek qo'yildi. Ayniqsa, bu kam ta'minlangan, keksha hamda nogironligi bor kishilarga juda katta qulaylik bo'ldi. Muhimi, ariza berilgan muddatni belgilashda inson omili qatnashmaydi, shuningdek, biron-bir ro'yxatni shakllantirishda ham shunday: barchasi avtomatik ravishda qayd qilinadi. Natijada arizalarni ko'rib chiqish muddati-yu navbatga qo'yish amaliyo-

ti shaffofligi va qonuniyligi ta'minlanayotir. Murojaatlarga javob olish ham ana shunday masofaviy tarzda amalga oshirilmoqda. Qolaversa, ushbu platformaning elektron hujjat almashish imkoniyati tufayli hokimlik jamoasining ishi yengillashdi va tezlashdi. Yaqindan boshlab Guliston shahridagi 11-maktabga yana bir loyiham asosida elektron qo'ng'iroq namuna-tajriba tariqasida o'rnatildi. Endi tanaffus va darsga chaqirish qo'ng'iroqlari soniyalargacha aniqlikda jaranglayotir, natijada mashg'ulot vaqtidan unumli foydalanish ta'minlanmoqda.

Hozir amaliyotga joriy qilinishi kutilayotgan yana bir ishim, bu — svetoforning qizil chirog'i yonganda to'xtash chizig'ida lazer to'siqlar paydo qilish orqali haydovchining qoida buzishiga yo'l qo'ymaslik hamda harakat xafsizligini ta'minlashga qaratilgan. Ayni lazer to'sig'i ustida esa reklama panosi ham bor. Sodda qilib aytganda, haydovchini ogohlantirish barobarida reklamadan daromad olish ham mumkin. Binobarin, IT-texnologiyalari bilan shug'ullanayotganim orqasidan yaxshigina daromad ham qilyapman.

Mamlakatimizda yoshlarni IT sohasiga qiziqitirish, bu borada qiziqish va intilishlarini qo'llab-quvvatlash yigit-qizlar bandligini ta'minlash bilan birga, el-yurt farovonligi, mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Husniddin OCHILOV,  
Guliston shahridagi  
IT-park menejeri, dasturchi



СОЦИАЛЬНЫЙ СРЕЗ



Представители старшего поколения не без основания считают дом малой родиной. Ибо дом и семья – это очаг, придающий сил, направляющий к осуществлению намерений человека.

веденных под земледелие. Но даже так проблема не была решена.

Конечно, невозможно в короткие сроки полностью обеспечить жильем тех, кто в нем нуждается. По подсчетам, для полного удовлетворения потребности населения нужно 145 тысяч квартир. Для их строительства требуется около 30 триллионов сумов. Исходя из этого создана система использования услуг частного сектора, а возведение многоэтажных домов проводится на основе государственного партнерства. Государство, в свою очередь, выделяет земли и льготные ипотечные кредиты.

Такая система успешно опробована у наших ближайших партнеров – в Японии и Южной Корее. Так, в Стране восходящего солнца в 1950 году были образованы жилищно-кредитные корпорации, а в Корее в 1962-м – национальные жилищные корпорации. То есть при обеспечении жильем населения,

особенно неимущих семей, в период рыночной экономики широко использовались услуги частного партнерства. В Финляндии также уже на протяжении 30 лет уделяется большое внимание решению жилищного вопроса.

По состоянию на 1 января 2021 года население нашей страны составило 34,5 миллиона человек, ежегодный прирост – 500 тысяч. По мнению некоторых исследователей, рост численности населения Узбекистана не прекратится еще в течение 40 лет и через 20 превысит 40 миллионов. Следовательно, мы должны и далее осуществлять активную работу и использовать самые оптимальные пути для обеспечения жильем нуждающихся семей.

В этом аспекте обществом будут поддержаны выдвинутые главой государства инициативы. И главной задачей станет правильный контроль поставленной большой цели, то есть парламент должен продемонстрировать свою силу в этом направлении.


Алишер КОДИРОВ,  
заместитель Спикера  
Законодательной палаты Олий  
Мажлиса Республики Узбекистан,  
руководитель фракции  
Демократической партии  
Узбекистана «Миллий тиклишим».  
УзА

# Будут решены проблемы миллионов молодых людей

Инициативы Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева, озвученные на состоявшемся 3 марта совещании, укрепили уверенность в завтрашнем дне миллионов наших соотечественников, особенно молодежи.

В ходе визита в Андижан в 2020 году глава государства отметил, что основной фактор искоренения бедности – обеспечение людей жильем. Если у человека появится дом, он будет действовать во имя своего благополучия. С учетом этого в нашей стране в последние годы приоритетными задачами определены обеспечение населения жильем и поддержка нуждающихся семей. Об этом свидетельствуют строительство 140 тысяч домов в течение последних четырех лет, ежегодное увеличение их количества в 4–5 раз по сравнению с показателями предыдущих годов.

Как показало изучение, 23 процента имеющихся проблем связаны с жилищным вопросом. В результате неудовлетворения в свое время этой потребности люди строили дома на землях, от-



Под крышей дома своего

54 ТЫСЯЧИ семей планируется обеспечить жильем в 2021 году. В частности, по государственной ипотечной программе построят 45 ТЫСЯЧ домов, что в 2 раза больше по сравнению с 2020-м. Но для удовлетворения спроса необходимо возводить 100–150 ТЫСЯЧ домов в год.

11,5 триллиона сумов выделят на обеспечение населения жильем.

Поставлена задача добиться того, чтобы стоимость квадратного метра жилья не превышала 4 миллионов сумов.

Вводится шестимесячный льготный период по ипотечным кредитам. В городах первоначальный взнос снизят с 20 до 15 процентов!

Регионам выделят средства на приобретение ТЫСЯЧИ квартир для сдачи в социальную аренду семьям, находящимся в сложных жизненных условиях.

## КТО ПОЛУЧИТ ПРЕЗИДЕНТСКИЕ ГРАНТЫ И ЛЬГОТНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ КРЕДИТЫ?

В общеобразовательной школе №9 города Карши состоялась встреча, посвященная создаваемым для молодежи возможностям и льготам при поступлении в высшие учебные заведения, а также обсуждению работы, проводимой Государственным центром тестирования.

В мероприятии, организованном областными отделениями Республиканского центра духовности и просветительства и Государственного центра тестирования, приняли участие специалисты этих учреждений, преподаватели, молодые люди и их родители.

Заместитель директора ГЦТ Сардор Ражабов, руководитель Кашкадарьинского областного отделения Центра духовности и просветительства Лола Саодатова и другие рассказали о возможностях и льготах, которые будут предоставлены при поступлении в вузы в 2021/2022 учебном году, а также ожидаемых изменениях в порядке проведения тестовых испытаний.

– На сегодняшний день наш центр организует встречи в Ташкенте и регионах, – рассказал С.Ражабов. – Цель – изучить мнения населения и родителей во время подготовки к вступительным экзаменам в высшие учебные заведения, проанализировать и решить поднятые вопросы. Кроме того, в этом году также возможны

некоторые изменения в порядке проведения тестовых испытаний. Так, рассматривается два варианта. В случае сохранения в стране условий карантина вступительные экзамены будут проводиться на открытом воздухе.


В настоящее время в республике принимаются серьезные меры по массовой вакцинации населения. Если карантин закончится, вступительные испытания будут организованы в традиционной форме. В прошлом году заявления о поступлении подавались в несколько этапов, а в этом у абитуриентов появится возможность зарегистрироваться на сайте нашего центра непосредственно по месту жительства независимо от региона. Все предложения поданы в Кабинет Министров Республики Узбекистан.

– Как известно, принята Государственная программа «Год поддержки молодежи и укрепления здоровья населения», – отметила Лола Саодатова. – Мы все должны быть хорошо осведомлены о поста-

вленных в ней задачах, а также о льготах, созданных для молодежи. В соответствии с мерами, намеченными в направлении развития социальной сферы, начиная с 2021/2022 учебного года для 200 молодых людей, набравших наивысшие баллы на вступительных экзаменах в вузы, будут учреждены гранты Президента Республики Узбекистан. А семьям, в которых на основе контракта обучаются двое и более детей, предоставят льготные образовательные кредиты. Оплатить такой кредит студенты смогут после окончания учебы.

Школа №9 города Карши, где прошло данное мероприятие, – одна из передовых с точки зрения организации образовательного процесса и достигаемых учениками результатов. Здесь около трех тысяч ребят. За всестороннюю подготовку учащихся несут ответственность 120 педагогов. Например, в прошлом году уровень поступления выпускников в высшие образовательные учреждения составил 54 процента.

– Хочу стать юристом, – делится планами выпускник школы Шухрат Расулов. – Сейчас основательно готовлюсь к вступительным экзаменам. Собираюсь подать документы в Ташкентский государственный юридический университет. Сегодняш-



няя встреча оказалась очень полезна для меня и одноклассников. Хочу выразить благодарность всем организаторам и гостям мероприятия.

Насиба ЗИЁДУЛЛАЕВА,  
УзА

СВЕТ ЗНАНИЙ





Несмотря на климатические сюрпризы, в двери стучится Навруз, пробуждающий самые чистые помыслы, зовущий к созиданию и благородству, отзывчивости и щедрости.

У светлой поры обновления, красоты и чудес много традиций. Одна из них – называть рожденных в дни народных зуланий или накануне именован праздники. И нет среди счастливиц, нареченных самим Наврузом, таких, кто бы не задумывался о влиянии имени на судьбу, об ориентире, который указывает на заложенное в пробуждении земли стремление думать, творить, искать смысл жизни.

Итак, участники нашего опроса. Наврузы, Наврузбеки, Наврузовы.

## Жизнь под знаком счастья

**Навруза ХАШИМОВА,**  
завкафедрой Ташкентского университета информационных технологий:



— Каждый, кто знает мое имя, как правило, утверждает: «А, 21 марта родились!» Нет, появилась на свет в знойный июльский день, но тесную связь с праздником добра и милосердия ощущаю всегда. Назвали меня благодаря тете – учительнице и большому ценителю литературы. Ей настолько понравился дастан «шаха красноречия своего времени» (так назвал выдающегося лирика Лутфи Алишер Навои) «Гуль и Навруз», что убедилась дать мне женский вариант имени любимого героя. Праздник, особо почитаемый в народе, стал стократ счастливее: у царя страны Навада родился сын. Радости правителя нет предела:

**Наврузом сына царя нарек: звучало,  
Как счастье, года нового начало!**  
Как бы то ни было, имя свой отпечаток наложило: весна всегда со мной. Помогало даже во время

самоизоляции. Среди тишины, вдыхая мартовскую свежесть, черпали энергию у проснувшейся земли. Больше времени появилось для ухода за фруктовыми деревьями, разбили цветник. Чего только не посадили! Прошлый Навруз стал для нашего сада временем глобального обновления.

С теплотой вспоминаю, как принимала участие в праздновании весеннего Нового года, которое проходило в Национальном парке Узбекистана имени Алишера Навои. Потрясающие концертные номера, красочные композиции, объединяющие историю и современность... И общий танец, когда на трибунах расцветают улыбки и свет счастья разливался вокруг. Главная черта праздника – доброта. Тем актуальнее звучит пожелание: «Пусть каждый день наш будет как Навруз». То есть добрым, наполненным чувством, вниманием к окружающим, готовностью прийти на помощь.

Радуюсь, что моя дочь в центре «Баркамол авлод» учит детей с особыми нуждами передавать красоту окружающего мира, помогает им поверить в себя. Работы ее воспитанников станут ярким цветником Навруза.

## Всадники на крылатых конях

**Навруз СУЯРОВ,**  
авиационный инженер:




— Мы, военнослужащие, можем во время празднования Навруза помериться силами в перетягивании каната, поднятии тяжестей, борьбе... В воинских частях тоже устраиваются традиционные состязания, веселые конкурсы и обязательно проводятся соревнования по разным дисциплинам. К нам приезжают певцы, актеры, писатели, поэты. Узнаем много интересного. Слушаешь стихи о Наврузе – и вдруг нахлынут воспоминания детства. Азар болельщика у меня оттуда, из кишлака Шавона Кошрабадского района Самаркандской области.

Смотрел на участников купкари и представлял, как Алпамыш летит на своем крылатом Байчибаре. А как хотелось самому оседлать скакуна, бы-

строго как ветер! И вправду, сложно уследить за тем, кто лидирует, – все происходит с молниеносной быстротой. Я сам прилично держусь в седле, но чавандозом стать бы не смог. Здесь нужна виртуозная джигитовка. Зато в других состязаниях начал проявлять себя со школьной скамьи. Борьба кураш – один из символов празднества. Поэтому больше других мне запомнился сайиль, где я одиннадцатилетним мальчишкой занял первое место. Взрослые паваны поздравляли, жали руку. Дома поминал лавры среди семьи.

Обязательно беру на народные гулянья сыновей. Конечно, таких зре-



лиц, как в моем детстве, им видеть не доводилось, но атмосфера волшебства их увлекает. Дарю мальчишкам воздушных змеев, и выезжаем в горы. Там они наблюдают за полетом сказочных «друзей», пытаются соревноваться.

Рассказал как-то об игре «чиллик» – не среагировали, попробовать не захотели. Сейчас дети больше компьютерными играми интересуются. Даже о знаменитой «ок терак – кук терак» знают только понаслышке. Так как сыновья пользуются компьютером под контролем, ставлю задачу – узнавать о Наврузе как можно больше.

Когда поднимаюсь над землей, не могу не заметить, как она прекрасна. Беречь ее надо всем миром, чтобы «каждый день был как Навруз».

## Так празднуют у нас в Сурхандарье

**Навруз ТОХИРОВ,**  
студент Ташкентского государственного университета востоковедения:



— Конечно, самый красивый Навруз в Байсунском районе, где проводятся уникальные фестивали народного творчества, куда съезжаются туристы со всего мира. Однако каждый любит свою малую родину и считает именно ее неповторимой. Я из Шерабадского района. Родился 10 марта. Полным ходом шла предпраздничная подготовка, и меня назвали Наврузом. Так сказать, «авансом».

Моя мама – медсестра, в вопросах гигиены разбирается профессионально. А прорастившие зерна для сумальяка поручают самым аккуратным женщинам махалли. Семья всегда гордится, что эти посланники весны проклевываются именно в нашем доме. Не раз слышал, как мама с ними беседует. Поет песни, улыбается, желает здоровья всем соседям, которые отдают волшебное лакомство, наполненное энергией обновления. Пока был маленьким, всегда тайком пробирался в комнату с живыми зернышками. Наблюдал, как появляются крошечные зеленые ростки, как с каждым днем «взрослеют». Также пытался разговаривать с ними, доверял свои ребячьи тайны.

Когда наступал праздник, не мог усидеть дома ни минуты. Особенно привлекало купкари (по-другому его называют «улак») – конноспортивное состязание, где всадники вырывают друг у друга козлиную тушу. Забава зрелищная, но и опасная. Участникам требуется немалая ловкость и сила. «Айтишу» – соревнование другого рода. Здесь нужно продемонстрировать искусство ления или красноречия. Сколько остроумных частушек-папаров услышишь! Устраиваются выставки народного творчества.

Нравилось, что среди первой весенней зелени «вырастают» курты-утов, а дастарханы ломаются от разнообразной снеди. Здесь чупочна, кук-чувара, лочира, бичак, багана, дангона, тунтарма, гилминди... И конечно, султан дастархана – сумальяк.



*Навруз возьмет вас за руки и выведет из домов, из-за закрытых дверей за высокие стены, к живой природе, на ее свободные бескрайние просторы: теплой от весны, светлой от солнца, дрожащей от удивления обновления и сотворения, прелестной от ветра и дождя, зрапной ароматами. Залая дождя, запах мяты, запах земли. Ветви промокшие, омывшие дождем, вистые и прозрачные...*

**Али Шариати**



Когда пришел Навруз и солнце взойшло из-за горной вершины, мир превратился в сад.

Фирдоуси

# В ИМЕНИ МОЕМ – НОВЫЙ ДЕНЬ!

## Все краски Риштана

**Навруза НАЗИРОВА,**  
магистрант Узбекского государственного университета мировых языков:



— Имя мое предопределено рождением. Не было никаких споров, перебирания вариантов. Раз появилась на свет 21 марта, то Навруза. Конечно, весенний Новый год – один из самых любимых праздников. Надо мной подруги подшучивают: «Вся страна готовится к твоему дню рождения». А я всегда жду от своей двойной даты чего-нибудь сказочного.

Мне пришлось поехать (отец – военнослужащий) по республике. Зато незабываемые впечатления получила, возвратившись в 12 лет в день рождения из Зарафшана в родной Риштан. Как будто и ветер ласковый, и деревья зеленее, и небо голубее. Слово десятки уникальных керамических изделий приветствовало меня мелодичным звоном: «Добро пожаловать домой, Наврузахон». Это был самый незабываемый Навруз в моей жизни. Потом старалась традиционно отмечать его с близкими в родных стенах.

Всегда любила предпраздничную уборку. В махалле все на виду. Видишь, как стараются молодые невестки, подражают взрослым девочкам, а пожилые женщины, у которых уже нет сил на хлопоты по дому, мудро руководят процессом. За каждое дело берутся с радостью, с добрыми мыслями, работают не покладая рук, весело напевая. Стар и млад знает, что в чистый дом, где живет доброта, спускаются ангелы и благословляют людей.

У Навруза много традиций, но самой главной у нас считают посещение пожилых людей. Никого не забывают, приносят угощение, если нужно, помогают по дому, внимательно выслушивают наставления и истории из жизни.

Стоит ли говорить, что украшением дастархана становится чудесная риштанская керамика. Где-то процветает семейная посуда – наши экологически чистые изделия, впитавшие энергию родной земли. Национальные блюда только выиграют от такого соседства: вкусно, полезно, красиво.

Я невестка в семье потомственных кулопов Назировых. Живу среди рукотворной красоты и не могу ею налюбоваться. По-моему, эти произведения искусства (по-другому не назовешь!) – желанный подарок к празднику. Муж – гид-переводчик, может о керамике и Наврузе дать



## Давай устроим весну!

**Наврузбек АЛЛАБЕРГАНОВ и Наврузбек ОРТИКБОЕВ,**  
учащиеся школы № 34 Ханкинского района Хорезмской области.

Нового дня и все новое. И назвали меня в честь него, потому что родился 24 марта. Мы оба – наврузовцы! Я и стихи к утреннику выучил, и песню, и зернышки прорастиваю на подоконнике. И встречаю Навруз отличными оценками. И рубашку мне мама новую купила, и бельбаг. Так «лази» станцию, что все сразу расцветет.

— Убедил меня тезка, что достоин приветствовать праздник, – подключается семиклассник. – И ведь придумал весну «ускорить». Вырезал цветы из белой бумаги, на молодое деревце прицепил. Ребята на перемене бегали посмотреть, что в пришкольном саду расцвело. А потом

позвал воздушных змеев запускать. Взлетали под его декламацию.

Люблю Навруз и горжусь именем, которое получил по традиции, потому что родился 20 марта. В эти дни над всеми хорезмскими махаллами струится запах плава, того самого, с крупно порезанной морковью. Это особенное блюдо. Предназначено для больных, одиноких, нуждающихся.

Состязания самые разные. Выбирают дерево с гладким стволом, на верхушку помещают что-нибудь ценное. Кто достанет – тому и приз. Гвоздь программы – борьба кураш. У нас без нее никак. Ведь знаменитый непобедимый Пахлаван Махмуд – хорезмиец. Надо марку держать!

В каждый Навруз спрашиваю себя, верен ли по-прежнему мечте. Хочу стать военнослужащим, защитником Родины, чтобы народ Узбекистана всегда имел такой щедрый дастархан, как в дни обновления природы.



Смеется в дни весны лицо Земли.

Агахи



## Навруз из махалли «Навруз»

**Навруз ФАЙЗУЛЛАЕВ,**  
студент Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства:



исчерпывающий ответ на японском языке. Глина его тоже слушается.

Люблю перед праздником отправиться в городе шелков нежный хан-атлас для свекрови. Подарок, в который вложена любовь, – это тоже традиция доброго праздника.

С удовольствием готовлю витаминные блюда с зеленью. Кук-чувара, обжаренная в масле, – объединение. Дочка Азима с присутствием девочкам любопытством начинает приглядываться к приготовлению традиционных блюд Навруза.

Будучи уверенной, что наш праздник самый красивый, самый веселый и добрый, все-таки хотела бы понаблюдать на свой день рождения в другой стране, чтобы посмотреть: а как у них? Знание языков (английский и корейский) даст мне возможность пропагандировать традиции Навруза.

— Мое направление бакалавриата – «Безопасность жизнедеятельности». Добрый праздник с его хашарами, генеральной уборкой и особыми блюдами, в основе которых первые дары природы, призывает человека задуматься, так ли он живет, правильно ли относится к земле.

Ведь весеннее пробуждение, обновление – начало полевых работ. Развитие техники, освободившее человека от тяжелого ручного труда, может нанести непоправимый вред почве. Природа мудра, и любое вмешательство в ее гармонию (Навруз и есть торжество этой гармонии) приводит к необратимым последствиям. Не зря наши предки обращались к солнцу, земле, воде, огню с просьбой дать им хороший урожай, просили прощения за причиненный ущерб.

Недаром героями праздника выбирались Бахор-ханум, Дехан-бобо и Момир, то есть подтверждалось единство весны, земледелия и самой земли.

Из далеких времен пришла традиция готовить в праздничные дни чалпак – тонкие лепешки, жаренные в масле, и угощать ими родных, соседей и знакомых, желая благоденствия, хорошего урожайного года.

До поступления в институт работал в махалле «Навруз» Мирабадского района Ташкента. Меня коллеги называли уважительным словом «сардор». Не раз приходилось организовывать молодежные хашары. Юноши и девушки с радостью занимались преобразованием родной махалли, помогали заготавливать дрова для варки сумальяка, сами участвовали в процессе. Потом демонстрировали таланты, выступая с концертными номерами, устраивая товарищеские матчи. Любимые соревнования – перетягивание каната, футбол, волейбол.

Жаль, что стали забываться многие народные игры. Думаю, юношам и девушкам стоит возродить их как дань истории, многовековой культуре нашего народа.



Записала Ольга АЛЕКСАНДРОВА



# Бумажный вестник весны

Новый год – всегда праздник для детворы. Весенний Новый год не исключение. Ребяты с восторгом ожидают традиционных лакомств, подарков, веселых игр.

Одно из любимейших развлечений в дни Навруза – запуск воздушных змеев. Этот старинный обычай символизирует приход теплых дней. В небе пестрят ярко раскрашенные, разные по форме и рисунку бумажные вестники расцвета природы.

В регионах республики проходят фестивали воздушных змеев, где каждый участник может показать умение ловко управлять с катушкой и проявить фантазию.


Варрака, конечно, можно купить на преднаврузовской ярмарке, но гораздо интереснее сделать самому!

Ольга ЛИДИНА

ТРАДИЦИИ НАВРУЗА



# ИЗНАЙ!



В 2009 году Навруз включен ЮНЕСКО в Репрезентативный список нематериального культурного наследия человечества как праздник, способствующий продвижению ценностей мира и солидарности между народами, поколениями, внутри семьи, а также примирению и доброжелательству.

Производство игрушек в старину было женским делом. В канун Навруза представительницы прекрасного пола лепили из глины свистульки в виде животных, птиц, фантастических существ и дарили их детям. Считалось, что звуки этих свистулек – символ добра и благополучия.

Согласно народному поверью, сажать тутовое дерево (шелковица), инжирное (фига) или каштановое в весенний Новый год – к счастью.



В праздник весеннего равноденствия проводят обряд «хафт син»: на столе должны быть семь блюд, названия которых начинаются на букву «С» и имеют определенное значение. В их числе «сир» (чеснок – символ медицины), «сиб» (яблоки – красота и здоровье), «сабзи» (зелень – возрождение природы), «сумаляк» (благополучие) и другие.

Существует поверье: когда открывается крышка казана, на поверхности сумаляка появляется изображение – иногда в виде солнца, цветов или животных. Говорят, это делают ангелы...



По легенде, Земля держится на рогах гигантского быка. Когда он устает, то перекидывает нашу планету с одного рога на другой. И происходит это в день весеннего равноденствия, 21 марта.

В старину Наврузу предшествовал Праздник цветов, когда мальчики собирали весенние первоцветы в полях и на лугах. Дети привязывали букетики к длинному шесту и расхаживали по кишлаку, поздравляя взрослых с наступающим праздником и распевая традиционные песни, напоминающие славянские колядки.

За свое усердие маленькие сборщики цветов получали сладости от сельчан.



## Sumalak party

В туристическом комплексе «Сохибкирон дарвозаси» Джизакской области прошел весенний молодежный фестиваль.

Цель – развитие внутреннего туризма, в том числе таких его видов, как агро-, эко-, гастрономический, паломнический.

Состоялась концертная программа, в рамках которой прошли выступления местных исполнителей, военного оркестра, а также фольклорные представления и национальные спортивные игры. Вечером праздник продолжился: звучали песни под гитару у костра, молодежь запускала в небо фонарики.

Готовый сумаляк раздали воспитанникам дома «Мехрибонлик» №29 в Джизаке, а также туристам и гостям.

## Студенты о Наврузе

Мартовский номер журнала ECOHeritage, который издается штаб-квартирой Института культуры при Организации экономического сотрудничества (ОЭС), посвящен весеннему Новому году.

В новом выпуске опубликована статья студентов Ташкентского государственного университета востоковедения Азама Худойкулова, Шахнозы Ахмедовой, Гулрух Абдуллаевой, Шахнозы Абдулжаббарово. Тема – особенности встречи Навруза в Узбекистане.

Представители ТГУВ совместно со сверстниками из других стран также подготовили видеоролик и поздравили всех с праздником весеннего равноденствия, обновления природы.



## Обойти Узбекистан пешком

Так решили поступить жители Сайхунбадского района Сырдарьинской области Элдорбек Жураев и Тулкин Усмонов.

В среднем они прохоят 40-45 километров в день, а Навруз планируют встретить в Муйнаке (Каракалпакстан).

Свой путь сырдарьинцы начали из Андижана. Спустя десять дней были в столице, где встретились с первым заместителем министра спорта Равшаном Ирматовым.

«Ваша выносливость и смелость достойны похвалы. Футбольные рефери за один матч проходят 15-18 километров, а вы ежедневно преодолеваете около 50», – отметил замглавы Минспорта.

Путешественники заявили, что в перспективе планируют отправиться пешим ходом и в зарубежные страны.

## Побежали?

В праздничные дни пройдет третий Ташкентский международный марафон. Ведь одна из традиций Навруза – состязания в быстроте и ловкости.

Забег состоится 28 марта. Стартово-финишная площадка расположится на пересечении улиц Афросиёб и Бешагач возле ледового дворца «Хумо Арена». Помимо трех основных дистанций (3, 21 и 42 километра), в программу включен экиден – эстафетная гонка.

Зарегистрироваться для участия можно на сайте uzmarathon.uz.



Это самый полнотемный праздник, когда торговцы закрывают свои лавки, ремесленники прекращают работу, все веселятся, угощают друг друга напитками и кушаньями, которых коснулся огонь.

Страбон



MULOHAZA UCHUN MAVZU

# ISM ham HUSN

**Necha asrlar mobaynida shakllanib, sayqal topib, turmush tarzimizga singib ketgan urf-odatlarimiz, an'analarimiz bilan bir qatorda, kundalik muloqotlarda tilga olinadigan ismlar ham avloddan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy-ma'naviy merosimiz hisoblanadi. Negaki, ismlarda millatning yuzi, e'tiqodi, ma'naviy darajasi aks etib turadi.**

Albatta, har bir ota-ona oilaning yangi a'zosiga ma'nodor, chiroyli ism qo'yishga intiladi, unda ezgu orzu-umidlari, farzandiga bo'lgan mehr-muhabbati o'z aksini topishini istaydi.

Ammo oramizda ismi noqulayligidan xijolat bo'lib yuradiganlar ham oz emas. Aslida farzandga ism qo'yayotganda qanday jihatlarga ahamiyat qaratish zarur? Ismlar inson hayotiga ta'sir o'tkazadimi? Bu boradagi savollarga javoblar bilan qiziqdik.

## CHIROYLI ISM QO'YISH BURCHIMIZ

— Fiqh kitoblarimizda farzandning ota-onadagi haqqi zikr qilingan boblarida, albatta, farzandga chiroyli va ma'noli ism qo'yish xususida aytib o'tiladi. Chunki keyinchalik farzand o'z ismidan boshqalar huzurida uyalmasligi kerak. Ism Allohga bandalik, Payg'ambarga ummat ekani va musulmonlar toifasidan ekaniga dalolat qilishi lozim. Qiyomat kuni har bir inson o'z ismi bilan chaqiriladi.

Abu Dardodan rivoyat qilinadi: Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) aytdilar: "Qiyomat kuni sizlar o'z ismlaringiz bilan va otalaringiz ismlari bilan chaqirilasis. Binobarin ismlaringiz chiroyli bo'lsin!"

## Shohista NIYOZOVA, "So'g'diyona" gazetasi muxbiri:

— Ismimni onam qo'yg'an ekan. Sababi men dunyoga kelishimdan oldin "Shohsanam va G'arib" dostonini o'qib tamomlagan ekanlar. O'sha asardan ta'sirlanib menga Shohsanam ismini bergan ekan. Yoshligimdan chiroyli qizlarga nisbatan "sanam" iborasini qo'llashganidanmi, ehtimol ismimni juda yoqtirdim. Ismimni so'ragan har qanday kishiga nomimdan mag'rurlanib o'zimni tanishtirdim.

Oradan yillar o'tib, "So'g'diyona" gazetasida ish faoliyatimni boshlagan kezlirim, tahririyatga bir xat kelib qoldi. Unda xat

Bola tug'ilganida ko'pincha ota-onalar unga qanday ism qo'yishga o'ylanib qolishadi. Natijada ko'p bosh qotirmay, ma'nosi g'aliz, to'mtoqroq ismlarni qo'yib yuborishadi. Shu qo'yiladigan ism bola bilan nafaqat foni dunyoda, balki qiyomatda ham birga bo'ladi. Bu mavzuga aloqador hadislarda aytiladi: Ibn Umar roziallohu anhudan rivoyat qilinishicha, hadisda ism qanday bo'lishi kerakligi ochiq bayon qilingan. Kishi o'zining Alloh taologa suyuqli ekanini bildirmoqchi bo'lsa, "Abdu..." bilan boshlanadigan ismlarni qo'ysin, chunki bunday ismlar Alloh taoloning quli ekanini hamisha bildirib turadi.

Boshqa bir hadisda bunday kelgan: Abu Vahb aytdi: "Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) aytdilar: "Payg'ambarlarning ismlarini olinglar, Alloh taolaga eng yoqadigan ismlar "Abdulloh" va "Abdurrohman"dir, eng sadoqatlisi "Horis" va "Hammam"dir, eng yomoni "Harb" (urush) va "Murra" (achchiq)dir".

O'g'il bolalarga payg'ambarlarning alayhimussalom muborak ismlarini qo'yish ham maqsadga muvofiq sanaladi. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam)ning ismlaridan "Muhammad", "Ahmad" kabilarni qo'yish fazilatlidir, ammo u kishining kunyalari bilan "Abul Qosim"

muallifi shunday savol bilan murojaat qilgan edilar: "Ismim Shohsanam. Ayrim manbalarda yozilishicha, farzandga bunday ismlar qo'yish joiz emasmi. Shu to'g'rimi?" Maktubni o'qib javobiga men ham qiziqdim. Oradan sal o'tib, din ulamolari bu mushitariymizga "Siz to'g'ri o'qigansiz. Qizlarga bu kabi ismlarni qo'yish joiz emas", — deb sabablarini tushuntirib bergan edilar. Javobi so'ngida ismlarini o'zgartirishlarini maslahat qildilar. Bu javobdan, to'g'risi butun vujudim titrab ketdi. Shu kuniyog' ismimni o'zgartirish payiga tushdim. Onamning roziligi va qo'llab-quvvatlashlari bilan ismimni Shohista deya o'zgartirdim.

deb ism qo'yish joiz emas.

Payg'ambarimiz Muhammad (alayhissalom) yomon va xunuk ismlarni o'zgartirishga buyurganlar.

Masalan, hazrat Umar roziallohu anhudan qizlari Osiya (gunohkor) ismini Jamila (chiroyli, go'zal) deb o'zgartirganlar. Hadislarda yana u zotning "Harb" (urush), "Murra" (achchiq) kabi xunuk ismlarni yaxshisiga almashtirishni buyurganlari naql qilingan.

Farzandga yaxshi ism qo'yg'anidan keyin uni chalayarim qilmay, to'liq va go'zal talaffuz qilish lozim. Afsus, ba'zi oilalarda ismni qisqartirib chaqirish odat tusiga kirgan. Masalan, "Abdulloh"ni (Allohning bandasi) "Abdi", "Abdul" deyishadi, bu ishi egasiga ham, Parvardigorga ham katta hurmatsizlikdir. Chiroyli ism qo'yish zarurligini shundan ham tushunsa bo'ladi. Demak, bu ishga alohida e'tibor qaratish zarur.

**Muslim ATAYEV, tarix fanlari nomzodi, O'zbekiston musulmonlari idorasi Fatvo bo'limi xodimi**



Zilola TO'LAGANOVA, psixolog:

— Inson ismi uning xarakteriga ta'sir qiladi. Bolaga chiroyli ism qo'yish ota-onaning farzand oldidagi mas'uliyatlaridan hisoblanadi. Ota-onalar har qanday sharoitda farzandiga chiroyli, ma'nosi ham go'zal ism qo'yishga harakat qiladi. Zero, ism o'z egasining xulq-atvoriga, hatto taqdiriga ham ta'sir qilishi mumkin..

Kishining ismi u haqidagi birinchi xulosani chiqarish uchun asos bo'la oladi. Shu boisdan ham tug'ilgan chaqaloqqa ism qo'yishda bu masalaga mas'uliyat bilan yondashish talab etiladi. Bunda, avvalo, ism chiroyli, ma'nodor, jarangdor va albatta, ota ismi bilan uyg'unlasha oladigan bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kishining ismi uning taqdirida, xarakterida, va hatto sog'lig'ida ham o'z izini qoldirishi mumkin. Ko'pgina mutaxassislarning ta'kidlashicha, insonning ismi uning asab tizimiga bevosita ta'sir qiladi. Agar ism odamga mos bo'lsa, demak, uni psixologik kasalliklardan (asab tizimining, yurak-qon tomir tizimining buzilishi) himoya qiladi.

O'ylaymanki, bizning shaxsiyatimizni va xarakterimizning xususiyatlarini belgilaydigan ismimiz har tomonlama chiroyli va albatta yoqimli bo'lmog'i dardkor.

## Qimmatoy YO'LDOSHEVA, "Zirapcha" teleloyihasingizning 4-mavsum ishtirokchisi:

— Ismimni buvim qo'yg'an ekanlar. Sababini ochig'i bilmayman. Lekin yoshligimdan tengdoshlarim ismimni aytib haqoratlashar edi. Deyarli har doim shunday voqeilikka guvoh bo'laverganimdan ismimdan nafratlanib qolganman. Ayniqsa, dugonalarim orasida ko'p haqoratlanganim bois, ular bilan o'ynashdan o'zimni cheklardim. Shu-shu qizlar bilan emas,

ko'proq o'g'il bolalar bilan bilan birga o'ynaydigan, ular bilan birga yuradigan bo'lib ketdim. Yigitlar bilan birga ulg'ayib, ular aroq ichsa aroq ichdim, cheksa chekdim. Oxir oqibatda o'g'il bolalarga o'xshab qoldim. Hozir yashash tarzim ham fikrlashim ham yigitlarga xos. Turmush qurishga, ona bo'lishga qiziqishim bo'lmagan. Bularning barchasiga birgina ismimni aybdor deb bilaman. Ehtimol, undaymasdir. Nima bo'lganda ham ismimni yoqtirmayman.

Mulohazalardan ko'rinib turibdiki, bolaga ism tanlaganda faqatgina xohish-istak, orzu-umidlarga tayanishning o'ziga kifoya qilmaydi. Shunday ekan har bir inson chaqaloqqa ism qo'yishga mas'uliyat bilan yondashmoqlari joiz. Zero, ism ham insonning husnidir.

Iqbol PARDAYEVA yozib oldi.



# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI JAMOASI

*Butun O'zbekiston xalqini, shu jumladan,  
o'qituvchi-pedagoglarimiz va talabalarni  
21-mart — Navro'z umumxalq bayrami  
bitan muborakbod etadi!*

*Fasli navbahor qalbingizga iliqlik baxsh  
etib, shu el, shu yurt rivoji yo'lidagi barcha  
ishlaringizda sizga ko'tarinki karyfiyat, kuch-  
g'ayrat bag'ishlab tursin!*



Aziz yurtdoshlar! Yosharish va yangilanish ayyomi —  
Navro'z bayramingiz qutlug' bo'lsin!

Ushbu yangi kun sizlarga cheksiz quvonch,  
qut-baraka olib kelsin! Jonajon diyorimiz doimo tinch,  
osmonimiz musaffo bo'lsin!

# URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI JAMOASI





# Har bir millatning taraqqiy va taoliysi ishlari vaqtida, nizomdan chiqarmay, tartibi ila yuritmoqg'a bog'lidir.

Abdulla AVLONIY

## FATONAT

Fatonat aql egasi bo'luv demakdur. Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir. Inson aqli ila... e'tiqodini mahkam qilur... Janobi haq insonni hayvonlardan so'z va aql ila ayirmishdur. Hayvonlar o'zlariga bo'laklar tarafidan keladurgon zulm va jabrlarni shox, tish, tumshuq va timoqlari ila qaytarurlar. Lekin inson... aql va idroki soyasida o'ziga keladurgon zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilub, bo'ynidan boylab, iplarning uchini qo'llariga bergan insonlarning aqlidur.

Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari najotidir. Ilm o'rganmak, olim bo'lmak uchun maktabga kirmak, muallimdan ta'lim olmak lozim. Aqlsiz kishilar na maktabga kirar va na muallimni bilur...

Hukamolardan biri: "Agar aqling qo'li - nafsingni jilovini ushlasa, sani yomon yo'llarga kirmoqdan saqlar. Har narsa ko'p bo'lsa, bahosi arzon bo'lur. Aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko'paysa, shuncha qimmatbaho bo'lur", demish:

**Aqldek zebo sifatni ko'rdi**  
**haq insonga eb,**  
**Oqil insonlar bilan berdi**  
**jahon-olamga zeb.**  
**Aql nuri to'ldi dunyoga**  
**ilm-u hunar,**  
**Aqlsiz inson qachon**  
**bilgusidur naf'u zarar.**

## SA'Y VA G'AYRAT

...Shariat ham aql yuzasidan yalqovlik qilub, ishsiz bekor yurmak durust emasdur... Dangasalik har insonni xor, ta'ma balosiga giriftor qilur. Bir ishga mashg'ul bo'lg'on kishilar vaqtning qanday o'tgonini bilmas. Yalqov kishilar uchun bir soat vaqt o'tkarmak qiyomatdan qiyindir. G'ayrat vujudimizga quvvat, mas'ud va baxtiyor bo'lishimizga sababdur. Shuning uchun har birimiz sa'y qilub, o'z kuchimiz ila maishatimizga kerak bo'lg'on narsalarni topub, boshqalarga muhtoj bo'lmay, rohat-rohat yashamog'imiz lozimdur.

Sihatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, qanoatimiz, sabrimiz, fazilatimiz, alhosil, butun hayotimiz harakatimizga bog'lidir. Harakatlik kishilar tezgina maqsudlariga yeturlar. Yalqov kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo'lub, xorlikda qolurlar.

Kishi yosh vaqtida ilm va ma'rifat, hunar va san'atga bo'yin qo'ymasa, taraddud qilmasa, albatta, qora ishchi bo'lib qolur. Shariatga ters, qonunga zid bo'lmagon xizmatlarni qilmak ayb emasdir. Agar bunga ham bo'yin qo'ymay, bu ko'murchilik, bu temurchilik — manga munosib ish emas, deb dangasalik qilub, ishsiz yursa, zo'r ayb, g'ayratsizlikdur...




## RIYOZAT

Riyozat deb savob ishlarni qilub, gunoh ishlardan saqlanmoqni aytilur. Riyozat adabning koni, ruhning damonidir. Insonlarni to'g'ri yo'lga solub, egri yo'ldan qaytarguvchi riyozattir. Shul sababli riyozat qilguvchilar oqil va fozil bo'lurlar... Yalqovlik, ko'p uxlamak, yomon odamlar ila yurmak, vaqtni bekor o'tkarmak, aysh-u ishrat qilmak, ko'p oshamak, foydasiz so'zlar so'zlamak, samovarlarda, ko'chalarda aziz umrini bo'sh o'tkarmak kabi ishlarning hammasi riyozatga zid, umrning egovi, Xudoning g'azabidur...

Aflotun hakim: "Men riyozatdagi lazzatni hech narsada ko'rmadim, zeroki, vujudimning salomatini, ruhimning saodatini riyozatda topdim. Shuning uchun riyozat ayni saodatdur, chunki fikrning, tilning islohi badanning riyozatiga bog'lidir", demish.

Ibn Sino hakim: "Tan riyozatidan ko'proq ruh riyozati lozimdur. Mard kishi o'zini riyozat va adab ila ko'rsatsun. Inson ila hayvon orasidagi farq yolg'iz maishatda emas, yaxshi axloq kasb qilmoqdadir", demish.

**Riyozat mevasidur**  
**asli bodom,**  
**Yuzi - qattig',**  
**ichidur - ishta in'om.**  
**Qishin maqsudina**  
**eltar riyozat,**  
**Riyozatsiz ish o'lgay**  
**besaranjom.**  
**Agar sabr-u riyozat**  
**cheksang, ey jon,**  
**Pishib oldingga tushgay**  
**mevai xom.**



## SHIJOAT

Shijoat deb botir va yurakli hech narsadan qo'rqmaydugon botir va yurakli bo'lur. Sa'y va g'ayratning ziddi dangasa va yalqovlik o'ldig'i kabi, shijoatning ziddi qo'rqoqlikdir. Qo'rqoq kishi o'zining soyasidan hurkar, hech bir ish qilishga yuragi bo'lmas. Ko'p kishilar vahima va qo'rqoqlik orqasidan mollaridan, jonlaridan, vatanlaridan ayrilurlar. Shuning uchun har ishda shijoatni qo'ldan bermaslik lozimdur. Shijoat insoniyatning yemushidur... Davlatning koni, manbai, — tartib-intizom, Sarvatning poydori erur iqtisodi tom. Muhtojlik yuzini ko'rur deb gumon qilmang, Tartibi birla yursa kishining ishi mudom.

## INTIZOM

Har bir millatning taraqqiy va taoliysi ishlari vaqtida, nizomdan chiqarmay, tartibi ila yuritmoqg'a bog'lidir. Shogirdlar maktab va madrasalardagi zamonga muvofiq ravishda qurilmish nizom va tartiblarni rioya qilmaklari lozimdur. Chunki tartib va nizomni rioya qilmagan kishilarning ishlari hamma vaqt notamom, o'zlari parishon bo'lurlar. Ammo ishlarini tartib uzra yuritugon kishilarning ishlari yerida, o'zlari tinch va rohatda umr o'tkarurlar. Hozirgi zamonda bizning Turkiston boylarining ishlari to'xtab, sinuvlarining birinchi sababi ishlarini axloqsiz, bilimsiz, musrif, yalqov kishilarga topshiruvlari ila barobar o'zlarining zamonga muvofiq tartib va nizomdan xabarsizliklarining yemushidur...

**Davlatning koni, manbai, —**  
**tartib-intizom,**  
**Sarvatning poydori erur**  
**iqtisodi tom.**  
**Muhtojlik yuzini ko'rur deb**  
**gumon qilmang,**  
**Tartibi birla yursa**  
**kishining ishi mudom.**

## MIQYOSI NAFS

Miqyosi nafs deb qiladurgon amallarimizni, ishlarimizni shariat, insoniyat qonuniga muvofiq o'lub-o'lmadig'ini vijdonimiz ila o'lchab ko'rmakni aytilur. Nafs o'lchovi haqiqiy bir o'lchovdirki, insonning o'z nafsiga loyiq ko'rmagon muomalani boshqalar haqida jiro etmoqg'a qo'ymas. Fikr egalari, insof sohiblari har vaqt nafs o'lchovidan tashqari harakat qilmas. Agarda bir sabab ila shariat hukmidan, insoniyat qonunidan chet ketsa, bu qabohatni nafs o'lchovi ila bilub, ikkinchi martaba qilmasga qasd va niyat qilub shariat nizomidan, insoniyat chizig'idan chiqmaslikka sa'y va g'ayrat qilur.

Alhosil, nafs o'lchovi ta'rifdan tashqari insonlar uchun eng foydali, har kimcha maqbul, buyuk bir fazilatdur.

## MOZIYDAN SADO

Buyuk Iskandar: "Dunyoda eng haqiqiy, to'g'ri o'lchov nafs o'lchovidirki, bu mezonda zarra nuqson yo'qdur", demish.

Ibn Sino hakim: "Insonning fazlu kamolining o'lchovi nafsning o'lchovi ila o'lchanur", demish.

**Dunyoda har narsaning**  
**maxsus o'lchovi bo'lur,**  
**Banda af'olini vijdoni ila**  
**tortib ko'rur,**  
**Bir ishiga vaznda kelsa og'ir,**  
**o'z nafsiga,**  
**Ul ishning qandoq bo'laklarga**  
**ravo, loyiq ko'rur.**

## VIJDON

Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladurgon hissiyot, ya'ni sezuv tuymakdan iborat ma'naviy quvvatni aytilur. Biz har vaqt af'ol va harakatimizning yaxshi va yomonligini, foyda va zararlig'ini onjaq vijdonimiz ila biturmiz. Vijdon insonning aql va fikrini haqiqiy mezonidurki, bu tarozu ila o'z kamchiliklarini o'lchab bilmak ila barobar, boshqalarning ham af'ol va harakatini sezur. Agar ishlagon ishi shariat, aql va hikmatga muvofiq bo'lsa, muhabbat qilur. Qabohat va yomon ishlarni qilsa, nafrat qilur...

Vijdon yaxshi xulqlarning manbai o'ldig'indan vijdon sohiblari har bir ishni beg'araz, xolis niyat ila ishlar. Shul sababli har kim nazarida maqbul va suyuqli bo'lur.

Ammo vijdonsiz kishilarning ishlari, niyat va amallarida, do'st va oshnoliqlarida yoshirin bir g'arazlari o'ldig'indan har vaqt hasrat va nadomat chekub, vijdon azobiga giriftor bo'lurlar.

**Har bir insonning haqiqiy**  
**foili vijdonidur,**  
**Mevasi yaxshi amaldur,**  
**hosili vijdonidur...**

Alhosil, vijdon har kimning af'ol va harakatini ko'rsatadurgon musaffo bir oyinadurki, bu ko'zuga chin nazar qilg'on kishi o'z ayb-u kamchiliklarini tuzatmak harakatida bo'lub, boshqalarning ayb va qusurlarini oxtarmoqg'a vaqti bo'lmaz...

Arastu hakim: "Ruhimizning ma'naviy quvvati o'lan vijdonimiz, fikrimizga quvvat berguvchi bir vositai idrokiya", deyur. Ya'ni, hissiyotimizning ruhimizga ta'sir ettirg'uvchi bir robitali elektriyasidur, demish.

Ibn Sino hakim: "Vijdon ruh va fikrimizni tuyg'un qilmakka birinchi vositadur", demish.

**Sof vijdon kabi hech komila**  
**mezon o'lmaz,**  
**Kishi o'z aybini bilmak kabi**  
**urfon o'lmaz.**  
**Shod-masrur o'lur insof ila,**  
**vijdonli kishi,**  
**Kimki vijdonsiz esa, to'g'ri,**  
**chin inson o'lmaz.**

**Boboravshan G'OZIDDINOV**  
**tayyorladi.**



## YOSHLIK ILHOMI

MUQADDAS  
VATAN

Har narsadan muqaddas,  
Mehribonim o'zingsan.  
Jonim fido har nafas,  
Mening qosh-u ko'zimsan.

Ona kabi ulug'san,  
Jahon ichra dorug'san,  
Non-tuz yeymiz bag'ringda,  
Yuzimizdek yorug'san.

Sendan bilim olamiz  
Yana senga qaytamiz.  
Biz senga xizmat qilib,  
Rahmatimiz aytamiz.

Sendan olgan bilimlar,  
Hali bizga asqotar.  
Chunki dunyoda yana,  
Har xil bilim yaralar.



## KITOB

Ilmlari behisob,  
Ichida ma'no to'la.  
O'qiy qolgin sen kitob  
Zehni o'tkir, zo'r bola.

Kitobning turi ko'pdir,  
Mazmuni ham shunga mos.  
Kim o'qisa, bilimi  
Ko'p bo'ladi, beqiyos.

Roman, qissa, hikoya,  
Ertak, masal... o'qib chiq.  
Barida ezgulik ko'p,  
Kitob-bebaho sandiq.

Xolida JO'RAYEVA,  
Uzun tumanidagi 3-IDUMLning  
9-sinf o'quvchisi

## BAHOR

Erib bitdi qishning oq qori,  
Adirlarda ko'klam ifori.  
Chalinadi hofizning tori,  
Qutlug' kelding o'lkamga, bahor.

Yuring, ketdik, boshlandi bashar,  
Har insonda oqibat oshar.  
Bu faslda yangilan, yashar,  
Yetib kelsin yurakka bahor.

Varrak sayli boshlanib ketgan,  
Ovozasi olamga yetgan.  
Diyorbekka ilhom baxsh etgan,  
Gul ko'yakli kelinchak bahor.

## NAVRO'Z

Jivirlab oqadi sokin shalola,  
Novdani tebratar mayin shabboda.  
Oftobga jilmayar turfa gullola,  
Kutganim, sen kelding, maftunkor Navro'z.

Qizlar kokilida uzun jamalak,  
Osmonda rang-barang go'zal kamalak.  
Falakda hilpirab uchadi varrak,  
Kutganim, sen kelding, maftunkor Navro'z.



Momolar aytadi chiroyli lapar,  
Jo'shganda ariqqa sig'maydi suvlar.  
Nafis iforlardan yayraydi dillar,  
Kutganim, sen kelding, maftunkor Navro'z.

Tarnovda sevinib yig'lar sumalak,  
Gullarda raqs tushib o'ynar kapalak.  
Katta doshqozonda qaynar sumalak,  
Kutganim, sen kelding, maftunkor Navro'z.

Diyorbek TURDIYEV,  
Chilonzor tumanidagi  
138-maktabning 11-sinf o'quvchisi

## MUALLIFGA MAKTUB

Assalomu alaykum, ustoz Abduqayum Yo'ldoshev. Sog'-omonmisiz? Sizning ko'nglingiz otashidan yaralgan asaringizni mutolaa qildim. Asardagi inson va uni o'rab turgan muhit, jamiyat va odamzot o'rtasidagi munosabatlar kishi ruhiyatiga lovullab kirib boradi. Qaysi asar, deysizmi?! Bu sizning "Puankare" hikoyangizdir.


VAQTGA BOY BERILGAN  
MAQSAD

Vaqt! U bunchalar tez o'tadi? Shuncha yelib, qayoqqa muncha shoshadi? Bu zolim shiddat umri tushga, ro'yo-ga aylantirib qo'ymaydimi? Uxladig-u uyg'ondik. Qisqagina davom etgan tushda esa butun hayotimiz mujassam.

Hozirgina sizning "Puankare"ingizdan bosh ko'targach, shunday hislarni tuydim. Haqiqatan, butun umrimiz, hayot yo'llarimiz qattol vaqtning shiddatiga dosh berolmaydi. O'tayotgan har bir kunimiz esa matematik masalalariga asoslangandek. O'rta qolayotgan yillarning mashaqqatlaridan oshib, qaynoq iztiroblari-yu sinovlariga bardosh berayotgan odamzotning borlig'i raqamlardan iboratdek.

Hikoyangizda insonning orzu-umidlari, maqsad-vazifalari qattol vaqtning shiddati tufayli sarobga aylanadi. Maqsadiga endi yetaman deganda, bunga erisholmay qolgan qahramonimizning ayanchli qismati so'zlanadi. Bu qahramon shunday

## ПУАНКАРЕ



Абулқавл Ярақов

olov misolki, undan doimo shijoat, g'ayrat, kuch-quvvat ufurib turadi. Dunyoga kelib, undan ma'no-mazmun axtarib yashash u qidirayotgan yechimga aylanadi. Ammo uning peshonasiga bitilgan taqdir butun kelajagini tubdan o'zgartirib yubordi.

Xalqimizda azaldan meros bo'lib kelayotgan ajoyib naql bor: "Yaxshi xotin bo'lsa, berdi Xudo, yomon xotin bo'lsa, urdi Xudo". Nadomatki, o'z maqsadlari tomon yelib-yugurayotgan haqiqiy olimning peshonasiga quvusiz bir ayol

bitdi. U eriga yor bo'lolmadi. Unga madadkor bo'lib qo'llab-quvvatlay olmadi. Na xo'jayiniga yor, na do'st, na sirdosh bo'lishga erisha oldi. Istagi hamisha "vatan" bo'ldi.

Hayot tashvishlari, xotini va bola-chaqasining orzu-istaklari bilan o'vora bo'lgan qahramon vaqt suvdai o'tganini sezmay qoldi. Endi esa o'zi uchun o'zgina ishlashga, yashashga kirishgan obraz yana o'sha "Gipotenuza"ning sir-asoriga sho'ng'iydi. Hatto, u talabalar orasida tug'ma talanti matematikni uchratadi. Uning beg'ubor ko'zlarida, nurli yuzlarida o'timishdagi yoshligining shu'lasini ko'radi. Ammo tarix chinakamiga takrorlanarkan. Yechimga oz qolgan-da, talaba ustozning oldiga to'yga taklifnoma ko'tarib keladi. O'shanda ustoz payqaydi. Shogirdining bir olam va'dalar berishiga qaramay, unda ham o'zining qismati

aks etishini sezadi. Talaba chiqib ketgach, ustozning ko'zlarida yosh qalqiydi.

Tinimsiz mehnat qilib, ter to'kib ishlab, yelib-yugurib maqsadga yeta olmay qolish alamli hol, albatta. Ayniqsa, yechimini topganingdan so'ng sendan avval uni kimdir bajarishga muvaffaq bo'lgan bo'lsa, bundan rasvosi yo'q! Shoir va jumalistlar ko'pincha biz yozmoqchi bo'lib yurgan mavzuni kimdir oldin qog'oza tushirib qo'ysa, bundan xursand bo'lishimizni ta'kidlashadi. Aslida bu bo'lmagan gap. Axir, bunday paytda ijodkor o'zini g'ajib nimtalashgayam tayyor turadi-ku. Bir kun, ikki kun, boringki, bir yil izlangan taqdiringizga boshqasi egalik qilsa, alam qilmaydimi?! Vaholanki, bizning qahramon bu jumboqqa butun umrini bag'ishlagandi.

Anglaganim, vaqt – bamiqli jalloddek shafqatsiz. U hech kimni ayamaydi. Hozir ham o'tayotgan kunlarimiz ko'z ochib yumgudek lahza. "Puankare"dagi qahramonlar hayoti va taqdiri qismatimizga aylanmasligi uchun ish ko'effitsiyentimizni, butun diqqat-e'tiborimizni maqsadimiz tomon qaratish lozim. Zero, ko'nuvchanlik, rad eta olmaslik kabi jihatlar bora-bora illatga aylanishi, oxir-oqibat inson fojiasini keltirib chiqarishi turgan gap.

Azim AXTAMOV

## Yoshlar murojaati

BOTI

## Hurmatli yoshlar!

"Yoshlar ovozi" - "Молодежь Узбекистана" gazetasi  
Sizlarni qiynayotgan muammolarni o'rganish hamda ularga yechim topishda yaqindan yordam berish maqsadida  
[@yoshlar\\_ovozi\\_bot](https://t.me/yoshlar_ovozi_bot) telegram manzilini ishgah tushirdi.

Siz ta'lim olish, bandlik, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, uy-joy xarid qilish, oila qurish hamda boshqa holatlarda muammo va noqonuniy to'siqlarga duch kelsangiz, bu haqda bizga murojaat eting. Tahriyat o'z vakolatlari doirasida bu muammolarni keng yoritish, tegishli tashkilot va idoralarga ochiq xat yo'llash yoki masalalar yechimi yuzasidan huquqiy maslahatlar berishda Sizga yaqindan ko'maklashadi.

**UNUTMANG!** Odatta yoshlar o'zining ulkan rejalarini boshlash arafasida ko'pincha mayda to'siq va muammolarga duch keladi. Bu tabiiy jarayon bo'lib, kurashuvchanlik bilan ushbu muammolarni yengib o'tganlar yangi-yangi ufqlarni zabt etaveradi.

Tahriyat

YOSHLAR OVOZI

MUASSIS:  
O'ZBEKISTON  
YOSHLAR ITTIFOQI  
MARKAZIY KENGASHI

## BOSH MUHARRIR:


Hamza  
ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda  
№ 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB:  
Yelena KALININA

NAVBA'TCHI MUHARRIR:  
Jamshid MUSURMONOV

DIZAYNER:  
Zafar RO'ZIYEV



## TAHRIRIYAT MANZILI:

100083, Toshkent, Matbuotchilar  
ko'chasi, 32.

## Telefonlar:

(71) 233-22-16  
(71) 236-79-95.

Gazeta materiallari tahriyat kompyuter  
markazida terildi va sahifalandi.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi  
bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.  
Hajmi – 3 bosma taboq.  
Korxonalar manzili: Buyuk Taron ko'chasi, 41.

Indekslar: 203, 3203  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Buyurtma G-355  
Adadi – 797  
Boshlangan topshirish vaqti – 21.00  
Topshirildi – 20.02